



Atajanova Rabbina Raximovna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktranti
e-mail: rabbina.atajanova@gmail.com

OILADA BOLALARNI ESTETIK TARBIYALASHNI TASVIRIY SAN'AT ORQALI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.451>

Annotatsiya. Maqola bolani oila muhitida ma'naviy-axloqiy, badiiy va estetik tarbiyalashda tasviriy san'atning o'rni va uning tafakkurida go'zallik olamiga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish, milliy va umuminsoniy hamda badiiy qadriyatlarga ehtirom ruhida tarbiyalash masalalariga qaratilgan. Shuningdek, maqolada bolada estetik tuyg'u, san'at asari mohiyatini anglash, rassom tomonidan muayyan obrazni tavsiflash uchun foydalanilgan ifodalash vositalarini farqlash, san'at asarini baholay olish qobiliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: badiiy va estetik tarbiya, tasviriy san'at, oila tarbiyasi, ma'naviyat, badiiy obraz, badiiy asar.

Аннотация. В статье рассматривается роль изобразительного искусства в духовно-нравственном, художественно-эстетическом воспитании ребенка в семейной среде и вопросы привития его мышлению трепетной любви к миру прекрасного, воспитания его в духе уважения к национальным и общечеловеческим художественным ценностям. В нем также рассматриваются вопросы эстетического чувства у ребенка, понимания сути произведения искусства, различения выразительных средств, используемых художником для описания того или иного образа, развития умения оценивать произведение искусства.

Ключевые слова: художественно-эстетическое воспитание, изобразительное искусство, семейное воспитание, духовность, художественный образ, художественное произведение.

Annotation. The article deals with the role of fine arts in the spiritual and moral, artistic and aesthetic education of a child in the family environment and the issues of instilling in his thinking a reverent love for the world of the beautiful, educating him in the spirit of respect for national and universal artistic values. It also deals with the issues of aesthetic sense in a child, understanding the essence of a work of art, distinguishing expressive means used by the artist to describe this or that image, developing the ability to evaluate a work of art.

Keywords: art and aesthetic education, fine arts, family education, spirituality, artistic image, work of art.

Kirish. So'nggi paytlarda pedagogikada har tomonlama rivojlangan, ruhan boy, faol, zamonaviy dunyoda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga hamisha qodir, barkamol shaxsni tarbiyalash usuli, voqelikka munosabatni shakllantirishning eng muhim

vositasi, ma'rifiy tarbiya usuli sifatida ma'naviy-axloqiy muammolarga e'tibor ortib bormoqda. Estetik tarbiya tizimi esa voqelik hamda o'z atrofidagi go'zallikni his qilishga o'rgatadi. Ta'lim tizimining dastlabki bosqichi oilada qaror topadi. Oila muhitida ma'naviy-axloqiy, badiiy va estetik

tarbiya olgan bola keyinchalik musiqachi, rassom, adabiyotshunos bo'lib yetishmasa ham, uning tafakkurida go'zallik olamiga nisbatan muhabbat, mehr, ong evriluvchanligi, axloqiy hamda badiiy qadriyatlarga ehtirom saqlanib qoladi.

Bolalarni har tamonlama yetuk qilib tarbiyalashning murakkab jarayonida estetik muhim rol o'ynaydi. Estetik tarbiya odamlar ongida g'oyalarni mustahkamlaydi va rivojlantiradi, atrofimizdagi hayotni chuqurroq anglash, go'zallik olamiga nazar tashlash imkonini beradi. Binobarin, estetik tarbiya sohasidagi ishlar hozirda e'tiborni tortmay qolmasligi aniq.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur maqolani yozishdan maqsad bolalarning estetik rivojlanishida oilaning rolini ko'rib chiqish hamda oilada estetik tarbiyalash shakllari va usullarini nazariy jihatdan asoslash. Ota-ona oilada bolalarni tasviriy san'at yordamida estetik tarbiyalashi kelajakda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantiradi.

V.N. Shatskoyning fikricha, estetik tarbiyaning maqsadi: "Estetik ta'lim ... o'quvchilarning san'at asarlariga faol estetik munosabatda bo'lish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, go'zallik qonunlariga muvofiq san'atda, ishda va ijodda go'zallikni yaratishda mumkin bo'lgan ishtirokni rag'batlantiradi"¹.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. San'at – inson shaxsini shakllantiradigan, uning atrof-muhit to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradigan eng muhim omillardan biri. Shu nuqtayi nazardan olganda san'at asarlarini idrok etish ko'nikmasini rivojlantirish badiiy tarbiyaning muhim maqsadi hisoblanadi.

San'at – estetik tarbiyaning muhim vositasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning his tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan².

¹ Казанова Т. Г. Изобразительная деятельность и художественное развитие дошкольников. – Москва, 2007. – С. 14.

² Tojiboyev Jahongir Umidjon o'g'li. Oila – estetik tarbiyani amalga oshirishning asosiy bo'g'ini. O'zbekistonda

Badiiy obrazni estetik kategoriya sifatida to'laonli o'zlashtirish san'at oldida turgan vazifadir. Estetik tuyg'u, ya'ni san'at asari mohiyatini anglash rassom tomonidan muayyan obrazni tavsiflash uchun foydalanilgan ifodalash vositalarini farqlash, shuningdek, san'at asarini shaxsiy hayotiy tajribasi bilan qiyoslash qobiliyatini shakllantirishdir. Agar bolaga ko'z oldidagi o'rmon, daryo, ko'chani ta'riflash taklif qilinsa, u mayda-chuyda detallarga o'ralashib, obyektlarning eng muhim, umumiy jihatlarini ajratib berishni uddalay olmaydi. Kartinalar esa uning tom ma'nodagi "ko'rish" ko'nikmasini tarbiyalashda yordam beradi. Bola bilan suhbatlar, muayyan tasviriy san'at asarlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda ularni kartinalarning mazmun-mohiyatini his qilish va ko'rishni o'rgatish pedagogning asosiy vazifasidir. Bolalar tasviriy san'at asari, undagi obraz hamda g'oyalar mohiyatini qanchalar chuqur anglab yetishsa, shaxsiy fikrlari va hissiyotlari shunchalar boy bo'ladi.

Bolaga san'atning o'ziga xos bo'lgan yo'nalishi va san'at asarlarining mohiyatini yoshlik davrlardan idrok etishga o'rgatish lozim. Ijodkorlik va jarayonning shunday rivojlanishidan manfaatdor ota-ona bolani estetik tarbiyalash uchun turli imkoniyatlarni qidiradi.

Bolalarda haqiqiy go'zallikni his etish tuyg'usi tabiat bag'rida, muzey, ko'rgazma, kino va teatrlarda bo'lish tufayli shakllanadi. Tarbiya jarayoniga mas'ul insonlar, ya'ni farzandning ota-onasi uning qanday musiqa tinglashi, qanday film yoki multfilmlarni tomosha qilishi, qanday o'yinchoq o'ynashlarida befarq bo'lmasliklari lozim. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, estetik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Estetik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu jarayon oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi. Umuman, tarbiya jarayonining psixologik mohiyati to'g'risida professor V. Karimova shunday yozadi:

"Tarbiya" tushunchasining tub ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu - insonning o'zi va o'z xulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri, xolis va obyektiv bo'lishiga olib keluvchi murakkab fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2023.

jarayondir³. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go‘zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go‘zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg‘u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishtirishga o‘rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi.

Estetik tarbiya – jamiyatda ma’naviy muhitni paydo qilishga ko‘mak beruvchi muhim unsur bo‘lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuch. Hozirda estetik tarbiyaning ko‘lami tobora kengaymoqda. Shunga ko‘ra, u o‘z oldiga talaygina muhim vazifalarni qo‘ygan⁴. Bular:

- kishilarda san’at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o‘zlashtirish, balki ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;

- jamiyat a‘zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish;

- tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg‘u bilan munosabatda bo‘lishga va ularni ravnaq toptirish yo‘lida astoydil faoliyat olib borish ko‘nikmalarini hosil qilish;

- o‘tmish ma’naviy merosimizga hurmat hissini uyg‘otish, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;

- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlarini uchun naf keltiradigan tomonlarini targ‘ib qilishga undashdir.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga – san’at, information texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin⁵.

Jahonning yetuk psixolog olimlaridan biri J.Gibson fikricha, idrok – atrof-muhit to‘g‘risida axborot olishga yo‘naltirilgan faol jarayon bo‘lib, u idrok etilayotgan obyektning o‘rganishga qaratilgan real harakatlarni o‘z ichiga oladi⁶.

Bola va san’atning har qanday turi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, avvalo, idrokdan boshlanadi. San’at asari bola tomonidan bevosita qabul

³ B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.

⁴ Rasulova M., Abdullayeva D., Oxunjonova S. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent, 2003.

⁵ J. Xasanboyev va boshqalar, Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021.

⁶ <https://ivanov-petrov.livejournal.com/1188656.html>

qilingandan keyin, g‘oyaviy-badiiy mohiyati anglab yetilgandan so‘nggina o‘zining tarbiyaviy va ta’limiy maqsadlariga erishadi. Shuning uchun ham aynan idrok jarayoniga alohida e’tibor qaratish lozim. Estetik idrokning oliy maqsadi – inson shaxsini shakllantirish.

Tarbiyalash usuli tarbiyachi (ota-ona) va bolalarning muayyan tartibga solingan, o‘zaro aloqador faoliyati, ta’lim-tarbiya va rivojlanish bo‘yicha belgilangan vazifalarni tahsil jarayonida hal qilishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlar to‘plamidan iborat. Ular og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy usullarga bo‘linadi.

Og‘zaki ta’lim usullari – o‘qitishning eng keng tarqalgan yo‘llari guruhi bo‘lib, ta’limning hamma bosqichlari hamda shakllarida foydalaniladi. Og‘zaki usullar ta’lim tizimida yetakchi o‘rinda turadi. Qachonlardir bu usullar bilim berishning deyarli yagona yo‘li hisoblangan. Hozirgi paytda ular nofaol, eskirgan sanaladi. Mazkur guruhga kiruvchi usullarni baholashga xolis yondashish lozim⁷.

Og‘zaki usullar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni yetkazish, bola oldiga muayyan muammolarni qo‘yish va ularni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatishga imkon beradi. Tarbiyachi so‘z yordamida bolalar ongida insoniyat tarixi, bugungi kuni va kelajagining yorqin manzaralarini jonlantirishi mumkin. So‘z bolalar tasavvuri, xotirasi, his-tuyg‘ularini faollashtiradi.

Ko‘rgazmali ta’lim usullari – bolaning san’at asarini o‘zlashtirishi jarayonida qo‘llanadigan ko‘rgazmali va texnik vositalarga sezilarli darajada bog‘liq usullardir. Ko‘rgazmali qurollar bilan amalga oshiriladigan ta’lim usullari og‘zaki va amaliy ta’lim yo‘llari bilan uyg‘unlikda olib boriladi. Ular bolalarni hodisalar, jarayonlar, obyektlar bilan yuzma-yuz, tabiiy holatda yoki turli rasmlar, reproduksiyalar, sxemalar va boshqalar yordamida ramziy tasvirda tanishtirishga mo‘ljallangan. Bu maqsadlar uchun quyidagi texnik vositalardan keng foydalaniladi:

- virtual ekskursiyalar;

- mohir rassomlarning mavzuga yaqin asarlarini birgalikda o‘rganish;

- videotaqdimotlar, videoroliklar tomosha qilish;

⁷ Xasanov R. Tasviriy san’at asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2009.

– taqqoslash (kayfiyatga qarab, ifodalash vositalari va boshqa jihatlari bo'yicha illyustratsiyalardan foydalanish);

– ko'rgazmalar tashkil qilish.

– usta rassomlarning mahorat bilan ishlash jarayonidan videoroliklar.

San'at asarlarini kuzatish va bolaning bevosita ishlash jarayonida turli usullarini o'zaro uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq bo'lib, asosiy urg'uni bolalar tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib ma'lum bir usulga qaratish lozim. Bundan tashqari san'at asarlarini idrok etishda bolaning o'zlashtirishiga qarab murakkablik darajalarini belgilashi mumkin. Ular quyidagilardan iborat:⁸

“passiv” va “faol” idrok; asarlarni o'zaro qiyoslash; asarni koloritini his qilish; asardagi detallariga e'tibor qaratish; asar kompozitsiyasidan kelib chiqib, adekvat reaksiyalar qo'zg'atish yoki hissiyotlarni “jonlantirish”; “g'oya-hissiyotlar”, “g'oya-munosabatlar” muhokamasi; ota-onaning bolada san'at asariga nisbatan idrokiga nisbatan emotsional munosabati; kartinani idrok etishdan “ta'sirlanish”.⁹

Muammoli usullarga

asarning musiqiy muqobilini topish (badiiy asarni musiqiy kompozitsiyaga qiyoslash);

asarning grafik muqobilini topish (kartina obrazini taklif qilingan rang gammalari yoki grafik kompozitsion sxemalar bilan qiyoslash);

“kartinani ko'ramiz va tinglaymiz” (bolalarga namoyish qilinayotgan kartinani fikran “tinglash”

⁸ M.Ahmedov. M.Nabiyev Hayoti va ijodi to'g'risida risola. – Toshkent, 2000.

⁹ Surayyo Rustamovna Mamatova, Oilada estetik tarbiya. Scientific progress Scientific Journal, 2024.

va “eshitgan” tovushlarini asarning emotsional qatoridan kelib chiqib ta'riflash taklif etiladi);

“bosh qahramon nomidan monolog yoki dialog tuzish” (o'zini xayolan asar qahramoni sifatida tasavvur qilish, uning nimalar haqida o'ylagani to'g'risida fikr yuritish, tasvirlangan hodisalarda xayolan ishtirok etish);

kartinaning grafik tasviriy talqini (rassom tasvirlagan qish peyzaji asosida yoz peyzajini chizish);

kartinani yanada to'ldirish (bolalarga kartina tarkibiy qismlaridan birini o'z talqinida, masalan, tabiat holatidan (kunduzi, oqshom, momaqaldiroq va h.) kelib chiqib “o'z osmoni”ni chizish taklif etiladi).

Yakuniy qism. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, bolalar qobiliyatini san'at asarlarini idrok etish orqali rivojlantirish ustida ish olib borish jarayonida ularda quyidagi natijalar kuzatiladi:

1. Bolalarning iste'dodi, yashirin qobiliyatlarini kashf etish uchun optimal sharoitlar yaratiladi.

2. Har bir bolaning kasbiy sifatleri va qiziqishlari rivojlanishi kuzatiladi.

3. Jamiyat bilan o'zaro munosabatlar shakllanadi.

4. Bilish jarayonlari taraqqiyoti ta'lim ishtirokchilarining saboq olish borasidagi talablarini yanada to'liq qoniqtirishga imkon beradi.

5. Badiiy did kurtaklari shakllanadi.

Asarlarni idrok etish jarayonida kechadigan mashg'ulotlar bolalar so'z boyligini oshiradi, o'z fikrini shakllantirish va isbotlash qobiliyatini rivojlantiradi, nutq obrazlilikini boyitadi, turli epitetlar, qiyoslashlardan foydalanishni o'rgatadi, muloqot qilish, savollarni tinglash va tushunishdan saboq beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Казанова Т. Г. Изобразительная деятельность и художественное развитие дошкольников. – Москва, 2007. – С. 14.
2. Tojiboyev Jahongir Umidjon o'g'li. Oila – estetik tarbiyani amalga oshirishning asosiy bo'g'ini. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar vailmiy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2023.
3. B. X. Xodjajev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.
4. Rasulova M., Abdullayeva D., Oxunjonova S. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent, 2003.
5. J. Xasanboyev va boshqalar, Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2021.
6. Xasanov R. Tasviriy san'at asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2009.
7. M.Ahmedov. M.Nabiyev Hayoti va ijodi to'g'risida risola. – Toshkent, 2000.
8. Surayyo Rustamovna Mamatova, Oilada estetik tarbiya. Scientific progress Scientific Journal, 2024.